



## «Asaka» bank (OAJ) xalqaro Mastercard yoki Maestro kartalaridan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risida -sonli SHARTNOMA

Toshkent sh.

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 201\_yil

«Asaka» bank (OAJ) \_\_\_\_\_ filiali (keyingi o'rinlarda «Bank» deb ataluvchi) nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi Boshqaruvchi \_\_\_\_\_ bir tomondan, va \_\_\_\_\_ keyingi o'rinlarda «Mijoz» deb ataluvchi, ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar asosida tuzdilar:

### 1. SHARTNOMADA QO'LLANILADIGAN ATAMALAR

- 1.1. **Karta hisobvarag'i**- (keyingi o'rinlarda «hisobvara» deb yuritiladi) - Kartadan foydalangan holda hisoblarni o'tkazish uchun, mijozga Bank ochib beradigan hisobvara.
- 1.2. **Karta** – O'zbekiston Respublikasi hududida va butun dunyo bo'ylab tovar va xizmatlar uchun hisob – kitoblarni amalga oshirish, hamda naqd pul mablag'larini olish vositasi sifatida Bank tomonidan chiqarilgan MasterCard Standard yoki Maestro xalqaro kartalaridan foydalanish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank va MasterCard Worldwide xalqaro to'lov uyushmasi o'rtasida tuzilgan a'zolik va litsenziyalashtirish bo'yicha bitim shartlari, hamda «Asaka» bankining xalqaro kartalaridan foydalanish Qoidalari (keyingi o'rinlarda Qoidalar deb yuritiladi)- tomonidan tartibga solinadi. (Ilova-1).
- 1.3. **Qo'shimcha Karta** – Karta bilan umumiy hisobvaraqa va Karta limiti chegarasida bo'lgan to'lov limitiga ega bo'lgan Karta.
- 1.4. **Mijoz** – Bankda hisobvarag'ini ochgan O'zbekiston Respublikasi rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy shaxs.
- 1.5. **Karta egasi** – Bank tomonidan Karta berilgan jismoniy shaxs.
- 1.6. **Karta orqali o'tkaziladigan operatsiyalar** – har qanday naqd pulsiz to'lov turlari, hamda bankomat va naqd pul mablag'larini berish punktlaridan naqd pul olish.
- 1.7. **To'lov limiti** - Mijozning hisobvarag'iga joylashtirilgan mablag'lar chegarasida (hisobvarag'idagi musbat qoldiq), Karta egasi Kartadan foydalangan holda o'tkazishi mumkin bo'lgan operatsiyalar.
- 1.8. **Garov depoziti** – mazkur shartnoma bekor qilingunga qadar foydalanishi mumkin bo'lmagan, Mijozning hisobvarag'ida joylashtirilgan pul mablag'larining yigindisi.
- 1.9. **Overdraft** - Karta yordamida o'tkaziladigan operatsiyalar yig'indisining, To'lov limitidan oshishi (Maestro kartalarida yo'l qo'yilmaydi).
- 1.10. **Muddati o'tgan qarzdorlik** – Kartadan foydalanish operatsiyalari bo'yicha Karta egasining, bank oldida hosil bo'lgan, muddatidan 30 kun ichida uzilmagan qarzdorligi.
- 1.11. **Ko'chirma** – Hisobot oyida Karta egasining, Kartadan foydalanish operatsiyalarini o'tkazish to'g'risida oylik hisoboti. «Asaka» bankning xalqaro plastik kartalarini olish uchun arizalar (keyinchalik – ariza) da ko'chirmalarni mijozga etkazish tartibiga izoh berib o'tilgan.
- 1.12. **Yakuniy ko'chirma** – Mijozning so'roviga asosan har chorak yoki yil yakunida turlarga bo'lingan operatsiyalar va har bir tur operatsiyaning yakuniy yig'indisini ko'rsatgan holda, bank tomonidan taqdim qilinadigan ko'chirmasi.
- 1.13. **Karta xarakatining to'xtatilishi** – Kartadan foydalangan holda, operatsiyalar o'tkazish imkoniyati yo'qligi.
- 1.14. **Stop-list**– operatsiyalar o'tkazishni bank tomonidan taqiqlangan Kartalar ro'yxati.
- 1.15. **Kartani yo'qotish** – Kartani yo'qotish, o'g'irlatish yoki musodara qilish, shu jumladan uchinchi shaxs tomonidan noqonuniy foydalanish maqsadida Kartaning raqami, xarakat muddati va magnit chizig'ini kodi haqidagi axborotni olish.
- 1.16. **Personal identifikatsion raqam («PIN»)** – xar bir Karta egasiga taqdim qilinadigan va elektron terminallar yoki bankomatlar yordamida o'tkaziladigan operatsiyalarda, shaxsiy imzo analogi sifatida Karta egasini identifikatsiyalash uchun foydalaniladigan individual kod.

## **2. SHARTNOMA MAZMUNI**

- 2.1. Bank Karta egasiga hisobvarak ochadi va To'lov limiti chegarasida hisobvarag'iga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi.
- 2.2. Mazkur shartnomani imzolash va arizani rasmiylashtirish sharti bilan bank Kartani mijozga beradi.
- 2.3. Karta bankning mulki hisoblanadi.
- 2.4. Shartnoma doirasida berilgan Karta va xamma Qo'shimcha kartalarga shartnoma shartlariga va Bank tariflariga munosib ravishda (keyinchalik – Tariflar) xizmat ko'rsatiladi.
- 2.5. Karta egasi bo'lmagan uchinchi shaxslarning Kartadan foydalanishi, shartnoma shartlarini buzish hisoblanadi.

## **3. HISOBVARAG'NI YURITISH TARTIBI**

- 3.1. Hisobvaraqlar ochilishida Mijoz hisobvarag'iga, Karta hisobvarag'iga yillik xizmat ko'rsatishni va ochilish komissiyasi, hamda sug'urta depozitining to'loviga yetadigan naqd pul mablag'larini joylashtiradi. MasterCard Standard kartasi uchun sug'urta depoziti 300 AQSH dollariga barobar. Maestro kartalari uchun esa sug'urta depoziti belgilanmaydi.
- 3.2. To'lov limitini oshirish uchun Mijoz o'z hisob varag'iga 100% (yuz foiz), to'lov limiti oshadigan mablag'ni joylashtiradi.
- 3.3. Bank Kartaning To'lov limitini, hisobvarag'iga mablag'lar joylashtirilgan kunining keyingi ish kunidan Toshkent vaqti bilan 18.00 dan kechiktirmay o'zgartirishi kerak.
- 3.4. Bank Mijozning hisobvarag'idan, amaldagi tariflarda ko'zda tutilgan komissiya va xizmat to'lovlari, aktseptsiz tartibda undiradi;
- 3.5. Bank Mijozning hisobvarag'idan, shartnoma doirasida Mijozga berilgan barcha Kartalar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar yig'indisiga ekvivalent bo'lgan mablag'lar hajmida MasterCard Worldwide to'lov tizimi orqali bank va tashkilotlar tomonidan to'lov uchun qo'yilgan to'lov hujjatlarini operatsiya o'tkazilgan kundan boshlab 1 (bir) - 45 (qirq besh) kun ichida, tariflarda ko'zda tutilgan hajmda Bankning komission haqini xam hisobga olgan holda aktseptsiz tartibda undiradi;
- 3.6. Overdraft yuzaga kelgan hollarda Bank, shartnoma doirasida Mijozga berilgan barcha Kartalar harakatini vaqtinchalik to'xtatib qo'yadi va sug'urta depozitida bo'lgan mablag'larni aktseptsiz tartibda qarzdorlikni so'ndirish uchun yo'naltiradi. Overdraft miqdori sug'urta depoziti miqdoridan oshgan holatlarda, Bank hisobvarag'iga o'tkaziladigan barcha mablag'lar, aktseptsiz tartibda overdraft qarzini va foizlarini undirisha yo'naltiriladi.
- 3.7. Bank Mijozning hisobvaraqlaridagi mablag'larni, aktseptsiz tartibda yuzaga kelgan qarzdorlikni so'ndirishga yo'naltiradi. Mijozning hisobvaraqlarida Bank oldidagi qarzdorlikni so'ndirish uchun yetadigan mablag' bo'lmagan holatlarda, Overdraft miqdorini Karta egasi yoki boshqa shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanishni oldini olish bo'yicha Bank harajatlarini xam hisobga olgan holda, Bank, Mijozning hisobvarag'ini blokirovka qilishi va aktseptsiz tartibda unda mavjud bo'lgan hamda tushayotgan mablag'lar hisobidan qarzdorlikni va harajatlarni so'ndirish uchun yo'naltirishga xaqlidir. Barcha qarzdorlik so'ndirilgandan keyingina Kartalar harakati tiklanadi.
- 3.8. Shartnomaning 3.6.,3.7. bandlarida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda, Bank shak-shubhasiz foizlar hisoblab borishni vaqtincha to'xtatadi va Bank tariflariga asosan Overdraft uchun Karta egasidan komissiya undiradi.
- 3.9. Shartnoma doirasida, Mijozga berilgan barcha Kartalar Bankka qaytarilgandan so'ng 45 (qirq besh) kundan so'ng, Bank hisobvaraqlarini yopishi va hisobvarag'idagi pul mablag'larining qoldig'ini qaytarishi, Mijozning og'zaki arizasi bilan amalga oshiriladi. Mijoz Kartalarni Bankka qaytarishdan voz kechgan holatlarda - Hisobvaraqlarini yopishi va hisobvarag'idagi pul mablag'larining qoldig'ini qaytarish Mijozning og'zaki arizasi bilan, Kartaning amal qilish muddati tugagandan so'ng 45 (qirq besh) kun o'tgan muddatdan keyin, amalga oshiriladi.
- 3.10. Shartnoma doirasida chiqarilgan, qo'shimcha Kartaning amaliyoti tugagan holatlarda, Kartadan foydalanib o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha Bank va Mijoz o'rtasidagi moliyaviy majburiyatlarini tartibga solish, Kartalar topshirilgandan 45 (qirq besh) kun o'tgandan keyin, amalga oshiriladi.

## **4. MIJOZ MAJBURIYATLARI**

- 4.1. Shartnoma doirasida Kartalar egalari haqida to'g'ri va aniq ma'lumotlar berish.

- 4.2. Kartalarning to'lovga qodirligini ta'minlash maqsadida xisobvarag'iga o'z vaqtida kerakli mablag'larni joylashtirish.
- 4.3. Karta yordamida o'tkazilgan operatsiyalar bo'yicha tariflarda ko'zda tutilgan komissiyalarni Bank tomonidan undirilishi uchun hisobvaraqa mablag'ning etarligini ta'minlash;
- 4.4. Tariflarga mos ravishda, Bankga komissiya va jarimalarni to'lab borish;
- 4.5. Agar ko'chirmani yetkazishning boshqa yo'llari kelishilmagan bo'lsa xisobot oyi ko'chirmasini olish uchun har oy hisobvaraqa joylashgan bankka kelish lozim;
- 4.6. Kartadan noqonuniy foydalanishning oldini olish bo'yicha Bankning hujjatlarida tasdiqlangan va haqiqatda amalga oshirilgan harajatlarini qoplash;
- 4.7. Karta orqali to'lov amalga oshirilgan, tovarni olishdan yoki xizmat ko'rsatishdan voz kechgan taqdirda, savdo rastasidan tovar yoki xizmat ko'rsatish qiymatini naqd pul mablag'larida qaytarishni talab qilmaslik.
- Zararni qoplash faqatgina Bankdagi hisobvaraqa naqd pulsiz yo'l bilan amalga oshiriladi.
- 4.8. Mazkur shartnoma qoidalari va shartlariga mos ravishda Kartalar orqali operatsiyalarni o'tkazish.
- 4.9. Bankni Karta egalari personal ma'lumotlari, telefonlari va yashash manzillari o'zgarishi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish;
- 4.10. Qo'shimcha Karta egalari mazkur shartnoma shartlari bilan tanishtirib chiqish;
- 4.11. Kartalarni yo'qotgan holatlarda, qoidalarga rioya etish, Bankdan bildirish olguncha, uchinchi shaxs tomonidan Karta egasining roziligi bilan yoki roziligsiz o'tkazilgan barcha operatsiyalarga ma'suliyatli bo'lish.
- 4.12. Shartnomaning 7.5, 7.6 bandlarida ko'zda tutilgan vaziyatlarda, Kartalardan foydalanishni to'xtatish va Bank ko'rsatmalariga rioya qilish;
- 4.13. Kartochkani uchinchi shaxslarga bermaslik;
- 4.14. Shaxsiy "PIN kod"ni sir tutish va uni begona shaxslarga oshkor qilmaslik;
- 4.15. Kartani internetdagi noma'lum va ishonchsiz saytlarda qo'llamaslik ;
- 4.16. Kartani turli qallobliklardan asrash maqsadida shubhali moslamalardan (bankomat, terminallar) yoki qurilmalardan foydalanmaslik. Kartadan faqatgina bank binolari ichida joylashtirilgan bankomatlardan foydalanish kerak.

## **5. MIJOZ HUQUQLARI**

- 5.1. To'lov limitlari chegarasida Kartadan foydalangan holda operatsiyalar o'tkazish.
- 5.2. Hisobvarag'i bo'yicha oylik ko'chirmani olish.
- 5.3. Ko'chirmada operatsiyalar bo'yicha generatsiyalash sanasidan 30 (o'ttiz) ish kunidan kechiktirmagan holda e'tiroz bildirish lozim. Ko'chirmaning sanasi hisobot oyidan keyingi oying birinchi ish kuni hisoblanadi. Ko'rsatilgan muddatda Bankga ko'chirmadagi sanab o'tilgan operatsiyalar bo'yicha yozma ravishdagi da'volar taqdim etilmagan holatlarda, ular tasdiqlangan hisoblanib, keyinchalik e'tirozlar qabul qilinmaydi.
- 5.4. Qo'shimcha Kartalar berilishini bankdan rasmiy iltimos qilish.

## **6. BANK MAJBURIYATLARI**

- 6.1. Tarifga mos ravishda va arizada ko'rsatib o'tilgan uslubda har oyda mijozga ko'chirmani taqdim qilish.
- 6.2. Tariflarga mos ravishda Karta egasining yozma Arizasiga asosan yakuniy ko'chirmani taqdim qilish;
- 6.3. Karta yo'qolganida yoki shikastlanganida Karta egasining yozma arizasiga binoan yangi Karta beriladi;
- 6.4. Arizada Mijoz ko'rsatgan shaxsga qo'shimcha Karta berish;

6.5. Tariflarda ko'zda tutilgan komissiyalar to'lovini to'lagan sharoitda Mijozning hisobvaraqa pul mablag'larini joylashtirgandan so'ng 2 (ikki) ish kunida Karta limiti oshiriladi;

6.6. Karta egasining Kartani yo'qotgan vaziyatlarda, bu haqda Mijozdan yozma ariza olingandan so'ng, keyingi ish kunidan boshlab hisobvarag'i bo'yicha o'tkaziladigan barcha operatsiyalari to'xtatiladi;

## **7. BANK HUQUQLARI**

7.1. O'z ixtiyoriga binoan Mijozga Kartani chiqarishda, berishda, yangilashda va tiklashda rad javobini berishi;

7.2. Mazkur shartnomaga va Bank tariflariga bir tomonlama tartibda qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritishga va bu ma'lumotlarni hisobvarag'i bo'lgan Bankning e'lonlar taxtasiga o'zgarish va qo'shimchalar kuchga kirishidan 15 kun oldin joylashtirilishi kerak. Bank kiritgan qo'shimchalar va o'zgartirishlar bilan Mijozning norozilik vaziyatlarida, Mijoz shartnomaning amal qilishini shartnomaning 11.1 bandida aytib o'tilgan tartibda to'xtatishga haqli.

7.3. Karta orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha Mijoz uchun garov depoziti belgilanadi. Bank tomonidan Mijozning harajatlarini qoplash bo'yicha garov depozitidagi mablag'lardan foydalanish tartibi Bank tariflari bilan belgilanadi.

7.4. Bank Mijozning hisobvarag'idan shartnoma doirasida Mijozga berilgan barcha Kartalar bo'yicha bajarilgan operatsiyalar yig'indisiga ekvivalent bo'lgan mablag'larni va tariflarda ko'zda tutilgan MasterCard Worldwide to'lov tizimi orqali bank va tashkilotlar qo'ygan to'lovlarni operatsiya o'tkazilgan kundan boshlab 1 (bir) - 45 (qirq besh) kun ichida, bankning komission mukofotlanishini xam hisobga olgan holda aktseptsiz tartibda undiradi;

7.4. Karta egasining Kartani yo'qotgan holatlarida, Karta egasining Karta yo'qolganligini xabardor bo'lgan vaqtdan, Bank tomonidan Kartani yo'qolganligi haqidagi Karta egasining yozma ariza berilgan kundan keyingi ish kunigacha bo'lgan vaqt mobaynida to'lovga taqdim qilingan bajarilgan operatsiyalar yig'indisiga ekvivalent bo'lgan mablag'larni hisobvarag'idan undirish;

7.5. Mijozning yoki Karta egasining shartnoma shartlarini, qoidalarni buzgan hollarda yoki Mijozning to'lashga qodir bo'lmaganligi dalillari oshkor qilingan vaziyatlarda Karta harakatini to'xtatish yoki bekor qilish, hamda Kartani muomaladan chiqarishga qadar barcha choralar qabul qilinadi;

7.6. Kartadan foydalanish jarayonida, Bank tomonidan noqonuniy operatsiyalar oshkor qilinganda, hamda MasterCard Worldwide to'lov tizimi Kartaning noqonuniy ishlatilishi haqidagi ma'lumotni taqdim qilgan hollarda, Kartaning amal qilishi to'xtatiladi.

7.7. Agar Mijoz biron-bir Kartasidan foydalanishni to'xtatish hoxishini Kartaning amal qilish muddati chiqishidan bir oydan kam bo'lmagan muddat ichida, Bankga bildirmagan bo'lsa, Mijozni qo'shimcha bildirishsiz, tariflarga muvofiq ravishda, Kartaga yillik xizmat ko'rsatish uchun komissiyani undirgan holda, shartnoma doirasida chiqarilgan Kartalarning muddati uzaytiriladi. Mijozning muddati uzaytirilgan Kartadan voz kechgan hollarda, Kartaga yillik xizmat ko'rsatish uchun Bank tomonidan o'ndirilgan komissiya qaytarib berilmaydi.

7.8. Hisobvarag'idagi mablag' barcha Kartalarga yillik xizmat ko'rsatish uchun kerakli komissiyani to'lashga yetmagan vaqtda, Karta yangi muddatga uzaytirilmaydi.

7.9. Karta egasi Kartani ariza berilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kunida yoki Kartaning amal qilish muddati o'zaytirilgandan so'ng 90 (to'qson) kun ichida olmagan bo'lsa Karta bekor qilinadi. Bank tomonidan undirilgan komissiya qaytarilmaydi.

7.10. Qaytadan chiqarilgan Karta uchun tariflarga mos ravishda komissiya o'ndiriladi.

## **8. TOMONLARNING MAS'ULIYATI**

8.1. Mijoz, o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmagan taqdirda, mazkur shartnomada va qoidalarda nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

8.2. Shartnoma doirasida berilgan Karta egasi tomonidan tegishli qoidalarni bajarmagan yoki talab qilingan darajada bajarmaganligi oqibatida etkazilgan zararn Mijoz tomonidan to'lanadi.

8.3. Mijoz, unga berilgan Kartaning internetdagi noma'lum saytlarda va shubhali moslamalarida (Bankomat, terminallarda) yoki shubhali qurilmalarda ishlatilishi natijasida kelib chiqadigan zararlarga javobgardir.

8.4 Mijoz unga hamda uchinchi shaxslarga berilgan Karta operatsiyalari uchun ham to'la to'kis javobgardir (Stop-listga kiritilgan kartalar bundan mustasnodir) ;

8.5. Bank Mijozning hisobvarag'ida joylashtirilgan pul mablag'larining butligiga javobgar va ularni shartnomaning 3.9. bandida belgilangan tartibda Mijozga qaytarilishini kafolatlaydi.

8.6. Bank Mijozning hisobvarag'i va Kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha Bank sirini saqlashga javobgardir. Hisobvarag'i va ko'rsatilgan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar amaldagi qonunchilikka muvofiq tartibda taqdim qilinadi.

8.7. Tomonlar mazkur shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda amaldagi qonunchilikka muvofiq tartibda javobgar bo'ladi.

## **9. FORS - MAJOR HOLATLARI**

9.1. Shartnoma tuzilganidan so'ng ushbu shartnoma bo'yicha har qanday majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmagan hollarda, agar bu to'liq yoki qisman bajarilmaganlik fors-major vaziyatlari oqibatida kelib chiqan bo'lsa va bu vaziyatlarni tomonlar qo'llaniladigan chora-tadbirlar bilan bartaraf qila olmasa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

9.2. Fors-major vaziyatlari vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlagan hollardagina fors-major holat hisoblanadi.

9.3. Texnik uzilishlar (elektr ta'minotning va aloqa tizimlarining shikastlanishi, protsessing markazining dastur ta'minotidagi uzilishlar, to'lov tizimidagi texnik uzilishlar) oqibatida Bankning shartnomadagi 3.3 bandini bajarmaslikka olib kelishi Bankni mulk javobgarligidan ozod qiladi.

9.4. Bank pochta ishidagi uzilishlar oqibatida Karta egasining ko'chirmalarni o'z vaqtida olmasligi yoki ololmasligiga javobgar emas.

9.5. Agar fors – major xolatlari 3 (uch ) oydan ortiq davom etsa, ikki tomonlama rozilik asosida shartnoma bekor qilinadi, bunda tomonlar bajarilgan va bajarilmagan majburiyatlar bo'yicha to'liq o'zaro hisob-kitobni amalga oshiradi.

## **10. MUBOHASALARNI HAL ETISH**

10.1. Tomonlarning shartnomani bajarishi jarayonida kelib chiqadigan barcha kelishmovchiliklar taraflar tomonidan o'zaro yechimini ishlab chiqish maqsadida, dastlabki tartibda ko'rib chiqiladi.

10.2. Kelib chiqqan kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan hal qilishning imkoni bo'lmaganda, tomonlar o'rtasidagi baxslar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq sudda hal qilinadi.

## **11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATINI BEKOR QILISH TARTIBI**

11.1. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

a) Mijoz tomonidan - Bank oldidagi barcha moliyaviy majburiyatlarni hal qilish sharti bilan, 45 kun oldin Bankga yozma tarzda ma'lum qilishi orqali;

b) Bank tomonidan – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda, shartnomaning 7.1,7.5,7.6. bandlari asosida.

11.2. Shartnoma doirasida Mijozga berilgan barcha Kartalar shartnomaning amal qilishi bekor qilinganda haqiqiy emas deb e'lon qilinadi va Mijoz ularni Bankga qaytarishi kerak. Bunda Bank komissiya va servis to'lovlarni qaytarmaydi.

11.3. Hisobvarag'idagi pul mablag'larining qoldig'i Mijozga shartnomaning 3.10. bandida belgilangan muddatlarda, naqd pulda qaytarib beriladi yoki Mijozning hisobvarag'iga naqd pulsiz o'tkazish yoki Mijozning yozma ko'rsatmasiga asosan boshqa hisobvarag'iga, tariflarga asosan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq o'tkaziladi.

## **12. YAKUNIY QISM**

12.1. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi hamda Mijoz va Bank tomonidan imzolanganidan so'ng kuchga kiradi.

12.2. Shartnoma belgilanmagan muddatga tuziladi va avtomatik tarzda Kartaning amal qilish muddatiga uzaytiriladi. Shartnomaning 11.1 bandida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

**13. TOMONLARNING MANZILLARI, TO'LOV REKVIZITLARI VA IMZOLARI**

«Asaka» Bank (OAJ) \_\_\_\_\_ filiali  
Manzil: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
Imzo: \_\_\_\_\_

M. U.

Karta Egasi  
Manzil: \_\_\_\_\_  
(shaxar,ko'cha,uy)  
Pasport: \_\_\_\_\_  
(seriya,№,kim tomondan berilgan)

Imzo: \_\_\_\_\_